Umurov Jasurbek Jamil o'g'li

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA KASABA UYUSHMALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI 936
Raxmonov Abduxalil Rasulovich

INKLYUZIV TA'LIM XIZMATLARINING RAQAMLI EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHDA DAVLAT, OTM VA IT INFRATUZILMA INTEGRATSIYASI 940
Maxkamova Kamola

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUDJETLASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH (ENERGETIKA KORXONALARI MISOLIDA) 944
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich

UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANISHIНИНГ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 950
Usmanov Mirumar Abdulla o'g'li

TIKUV-TRIKOTAJ MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KICHIK KORXONALARNING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI 956
Abduhamidov Abdurahmon Abdulatif o'g'li

O'ZBEKISTONDA 2026–2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 963
Ismailov Timur Atabayevich

SAVDO LIBERALIZATSIYASINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI TARKIBIGA TA'SIRI 969
Sardorjon Maxmudov Sobirjon ug'li

MAHALLIY BUDJETLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINING UY XO'JALIKLARI FAROVONLIGI VA HUDUDIY IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EMPIRIK TAHLIL QILISH 977
Safarmurodova Marjona To'raqulovna, Ollokulova Feruza Mansurovna

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF FINANCIAL SUSTAINABILITY IN INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE OIL AND GAS SECTOR 982
Ergashev Muhibbek Aslamovich

O'ZBEKISTON MOLIYA BOZORIDA FIN TECH KOMPANIYALARI VA BANKLAR HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI 988
Rajabova Umida Umurzoqovna

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ПРЕФЕРЕНЦИЙ И ЛЬГОТ В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ) 995
Отамуродова Дилдора Абдукримовна

THE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON INTERNATIONAL MARKETING: RESHAPING GLOBAL MARKET ENTRY STRATEGIES AND CONSUMER ENGAGEMENT 1001
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Ne'matullyev Bekmirzo Bozorboy o'g'li, Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

TARIXIY-MADANIY TURIZM XIZMATLARINI MINTAQADA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH 1010
Erkayeva Barno Abduraximovna

GLOBAL IQTISODIY INTEGRATSIYA SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MENEJMENT YONDASHUVLARINING ROLI: O'ZBEKISTON MISOLIDA 1015
Mahmudova Madinaxon Jumaboy qizi

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УКРЕПЛЕНИЯ ДОХОДНОЙ БАЗЫ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 1020
Т. И. Бобакулов, Г. Ч. Джавлиев

ECOTOURISM DEVELOPMENT POTENTIAL AND THE ROLE OF GUIDES IN REGIONAL TOURISM GROWTH: EVIDENCE FROM THE NAVOI REGION OF UZBEKISTAN 1024
Axmadova Iroda Muzaffar kizi

DIGITAL ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND ITS PRIORITY DIRECTIONS 1030
Ollokulova Feruza Mansurovna, Guzal Abdimurodova Panjiyevna

KORRELYATSION - REGRESSION TAHLILNING QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA QO'LLANILISHI AHAMIYATI 1035
Butanova Dilnoza Rustamovna

MADANIYATLARARO YETAKCHILIK VA LINGVOMADANIY KOMPETENTSIYA BOSHQARUV ISHI SIFATIDA 1042
Rahimova Gulnoza

SANOAT KORXONALARINI YANGI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYA BILAN TA'MINLASH JARAYONLARINING HOZIRGI ZAMON HOLATI 1052
Akbarova Maloxat Atabekovna

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH 1056
Abdukadirova Nilufar Abdaxatovna

FARG'ONA VILOYATIDA INVESTISIYA SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA 1062
Qo'chqarov Yunusali Sobirjonovich

O'ZBEKISTONDA "YASHIL KREDITLASH" TIZIMI: NAZARIYA VA AMALIYOT 1069
Erkinov Farrux Rustam o'g'li

AKSIZ SOLIG'I MA'MURIYATCHILIGI TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI 1075
Nazarova Rushana Ravshan qizi

MOL-MULK SOLIG'I TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING MOLIYAVIY ASOSLARI 1080
Qodirov Hasan Do'stqobilovich

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI IQTISODIY JARAYONLARNI RAQAMLASHTIRISH MEXANIZMLARI 1084
Matyoqubov Yo'ldoshboy Ergashboy o'g'li

YASHIRIN IQTISODIYOTNI SOLIQ VOSITASI ORQALI QISQARTIRISHDA HUKUMATNING ROLI 1089
Pirnafasov Sarvar Bardibayevich

HUDUDNING TURIST JOZIBADORLIGINI IQTISODIY BAHOLASH VA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY TAMOYILLARI 1093
Q.A. Musaxanov

TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY BOSHQARUV YONDASHUVLARINI TAKOMILLASHTIRISH 1098
Umarova Nilufar Abdukaxor qizi

IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI 1103
Ulashev Xubbim

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA OBODONLASHTIRISH XIZMATLARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI 1107
Hayitov Jamshid Xolvoyevich, Ibragimova Gulhayo Nuriddin qizi

INVESTITSIYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH OMILLARI 1112
Abdurasulov Sardor To'lqin o'g'li

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO‘LOV QOBILYATI HOLATI TAHLILI 1119
Adilova Zohida Ikromjonovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TO‘LOV QOBILYATI HOLATI TAHLILI

Adilova Zohida Ikromjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Bank ishi kafedrasi katta o‘qituvchisi
E-mail: adilova.zohida1989@gmail.com
ORCID;0009-0008-2589-76

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining to‘lov qobiliyati holatini baholash masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida banklararo to‘lovlar hajmi, muomalaga chiqarilgan plastik kartalar soni, to‘lov terminallari, bankomat va infokiosklar tarmog‘ining rivojlanish dinamikasi asosida tijorat banklari to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilindi. Tahlil natijalari raqamli to‘lov infratuzilmasining kengayishi bank operatsiyalarining tezkorligi va samaradorligini oshirish, naqdsiz hisob-kitoblar hajmini kengaytirish hamda to‘lov oqimlarining uzluksizligini ta’minlashda muhim omil ekanini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va to‘lov qobiliyatini ta’minlashga nisbatan yangi talablarni shakllantirishi asoslandi. Tadqiqot yakunida tijorat banklarining to‘lov qobiliyatini mustahkamlash raqamli infratuzilma samaradorligi, likvidlikni boshqarish sifati va to‘lov tizimlari barqarorligini kompleks rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq ekanligi xulosa qilindi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, tijorat banki, to‘lov qobiliyati, banklararo to‘lovlar, naqdsiz hisob-kitoblar, plastik kartalar, to‘lov infratuzilmasi, moliyaviy barqarorlik, likvidlik, to‘lov tizimi.

Abstract. This article examines the issues of assessing the solvency of commercial banks in the context of the digital economy. The study analyzes the factors influencing bank solvency based on the dynamics of interbank payment volumes, the number of issued plastic cards, and the development of payment terminals, ATMs, and infokiosk networks. The findings indicate that the expansion of digital payment infrastructure plays a crucial role in increasing the speed and efficiency of banking operations, expanding cashless transactions, and ensuring the continuity of payment flows. At the same time, it is substantiated that the digitalization process creates new requirements for ensuring the financial stability and solvency of commercial banks. The study concludes that strengthening bank solvency is closely linked to the comprehensive development of digital infrastructure efficiency, liquidity management quality, and the stability of payment systems.

Key words: digital economy, commercial bank, solvency, interbank payments, cashless transactions, plastic cards, payment infrastructure, financial stability, liquidity, payment system.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы оценки платежеспособности коммерческих банков в условиях цифровой экономики. В ходе исследования проанализированы факторы, влияющие на платежеспособность банков, на основе динамики объёма межбанковских платежей, количества выпущенных пластиковых карт, развития сети платежных терминалов, банкоматов и инфокиосков. Результаты анализа показали, что расширение цифровой платежной инфраструктуры является важным фактором повышения оперативности и эффективности банковских операций, увеличения объёма безналичных расчетов и обеспечения непрерывности платежных потоков. В то же время обосновано, что процесс цифровизации формирует новые требования к обеспечению финансовой устойчивости и платежеспособности коммерческих банков. По итогам исследования сделан вывод о том, что укрепление платежеспособности коммерческих банков тесно связано с комплексным развитием эффективности цифровой инфраструктуры, качеством управления ликвидностью и устойчивостью платежных систем.

Ключевые слова: цифровая экономика, коммерческий банк, платежеспособность, межбанковские платежи, безналичные расчеты, пластиковые карты, платежная инфраструктура, финансовая устойчивость, ликвидность, платежная система.

KIRISH

Jahon xo‘jaligida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank sektorining faoliyat yuritish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Xususan, to‘lovlar, hisob-kitoblar, masofaviy bank xizmatlari, mobil ilovalar, tezkor to‘lov platformalari va ma’lumotlar asosida boshqaruv tizimlarining keng joriy etilishi tijorat banklari faoliyatida yangi sifat bosqichini yuzaga keltirdi. World Bankning Global Findex ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli to‘lovlardan foydalanuvchi katta yoshli aholining ulushi 2014-yildagi 35 foizdan 2021-yilda 57 foizga yetgan. Bu holat moliyaviy xizmatlar iste’molida raqamli kanallarning ustuvor ahamiyat kasb etayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishi tijorat banklari oldiga nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki to‘lov qobiliyatini barqaror saqlash, likvidlikni real vaqt rejimida boshqarish va texnologik xatarlarni jilovlash kabi murakkab vazifalarni ham qo‘ymoqda.

Xalqaro moliyaviy institutlar tahlillari ham ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, International Monetary Fund “raqamli moliyaviy infratuzilmalar va raqamli valyutalar rivojlanishi bank tizimi uchun moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq yangi xavflarni, jumladan, bank resurs bazasining beqarorlashuvi va inqirozli vaziyatlarda mablag‘lar oqimining tezlashishi xavfini kuchaytirishini qayd etadi”. Bank for International Settlements esa “sun’iy intellekt, raqamli ma’lumotlar bazalari va to‘lov texnologiyalarining tez rivojlanishi markaziy banklar hamda tijorat banklari uchun yangi institutsional va prudensial yondashuvlarni talab qilayotganini ta’kidlaydi”. Demak, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari to‘lov qobiliyatini tahlil qilish masalasi faqat mikroiqtisodiy yoki ichki boshqaruv darajasidagi masala bo‘lib qolmay, balki moliyaviy barqarorlik, to‘lov tizimi uzluksizligi va iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu mavzuning dolzarbligi yildan yilga kuchayib bormoqda. Mamlakatda raqamli transformatsiyani jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi iqtisodiyot va moliya tizimida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashni nazarda tutadi. Bu esa bank tizimida raqamli xizmatlar ko‘lamining kengayishi, elektron to‘lovlar hajmining ortishi va masofaviy bank xizmatlarining chuqurlashuvi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yil yakunlari bo‘yicha hisobotida qayd etilishicha, 2024-yilda bank kartalari asosidagi tranzaksiyalar hajmi 917,9 trillion so‘mga, tranzaksiyalar soni esa 47,5 milliard operatsiyaga yetgan. Shuningdek, muomaladagi bank kartalari soni 34 foizga oshib, 62 million donani tashkil etgan. Mazkur ko‘rsatkichlar raqamli to‘lov infratuzilmasi bank tizimining kundalik faoliyatida hal qiluvchi o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatini o‘rganishda asosan uchta yo‘nalish ustun turadi: birinchisi — bank xizmatlarini raqamlashtirishning operatsion samaradorlikka ta’siri; ikkinchisi — raqamli transformatsiyaning likvidlik va moliyaviy barqarorlikka ta’siri; uchinchisi esa — raqamlashtirish bilan bog‘liq yangi risklarning bank to‘lov qobiliyatiga ta’siri. Basel Committee on Banking Supervision materiallarida moliya tizimining raqamlashtirilishi bank mahsulotlari, xizmat ko‘rsatish kanallari, risklarni boshqarish va nazorat mexanizmlarini sezilarli darajada o‘zgartirayotgani ta’kidlanadi. Shu sababli bank faoliyatini baholashda endilikda faqat an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib bo‘lmasligi, balki texnologik va operatsion omillarni ham hisobga olish zarurligi asoslanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

R. Bouis, G. Gelos, P. Miettinen, F. Nakamura, E. Nier va G. Soderberg raqamli pul va raqamli moliyaviy infratuzilmalar banklar resurs bazasi barqarorligiga bevosita ta’sir qilishini asoslaydi. Ularning fikricha, raqamlashtirish va ayniqsa raqamli to‘lov muhitining chuqurlashuvi depozitlarning bank tizimi ichida va undan tashqariga ko‘chishini tezlashtirishi, natijada banklar likvidligi va to‘lov qobiliyatiga bosim kuchayishi mumkin. Ular bank operatsiyalari endi avvalgidan tezroq yuz berishi mumkinligini, bunga ijtimoiy tarmoqlar va raqamli banking xizmatlari sabab bo‘layotganini qayd etadi. Bizning fikrimizcha, bank xizmatlariga ortayotgan bosimni yumshatish uchun 24/7 rejimida ishlaydigan xizmatlarni yo‘lga qo‘yish, shuningdek, likvidlikni ta’minlash maqsadida bank balansida doimiy likvid mablag‘larni yetarli darajada saqlab turish zarur.

Likvidlik va to‘lov qobiliyati nazariyasida klassik yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. X. Freixas va J. Rochet bank likvidligini boshqarish bank faoliyatining markaziy unsurlaridan biri ekanini, likvidlik tanqisligi esa bankning to‘lovga qobiliyatsiz holatga kelish xavfini oshirishini ko‘rsatadi. F. Allen va D. Gale esa moliyaviy tizimdagi o‘zaro bog‘liqlik sharoitida likvidlik buferlari yetarli bo‘lmasa, alohida bankdagi muammo butun tizim bo‘ylab tarqalishi mumkinligini asoslaydi. Mazkur nazariy qarashlar raqamli iqtisodiyot sharoitida yanada dolzarb bo‘lib, real vaqt rejimidagi to‘lovlar banklardan yuqori darajadagi likvidlik boshqaruvini talab qilmoqda. Bu xulosalar zamonaviy mahalliy tadqiqotlarda ham aks etgan.

Mahalliy olimlar va tadqiqotchilar ishlarida ham mazkur masala tobora ko‘proq yoritilmoqda. Jumladan, M. Maxmudova O‘zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya va moliyaviy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilib, raqamli indeksdagi o‘sish banklarning Z-score ko‘rsatkichiga ijobiy ta’sir qilganini qayd etadi.

Muallifning empirik natijalariga ko‘ra, raqamli transformatsiya banklarning riskka chidamliligini kuchaytirishi va moliyaviy barqarorlik indikatorlarini yaxshilashi mumkin. Fikrimizcha, bu yondashuv raqamli xizmatlar kengayishi banklarning to‘lov qobiliyatini ham mustahkamlovchi omil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Mahalliy adabiyotlarda likvidlik masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. N. Baxromovning tadqiqotida tijorat banklari likvidlik ko‘rsatkichlari moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda asosiy omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Muallif likvidlikning barqaror ta’minlanganligi bank aktivlari sifati, resurs bazasi mustahkamligi va banklarning majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqligini qayd etadi. Shuningdek, u Basel Committee on Banking Supervision talablari asosida LCR va NSFR kabi ko‘rsatkichlar bank nazoratining muhim instrumentiga aylanganini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari to‘lov qobiliyatini baholash an’anaviy likvidlik va kapital yetarliligi ko‘rsatkichlari bilan cheklanmaydi. Uni baholashda banklarning raqamli infratuzilmasi, to‘lov tizimlari uzluksizligi, operatsion barqarorlik, kiberxavfsizlik, depozitlar harakatchanligi va regulyator nazorati samaradorligi ham kompleks tarzda hisobga olinishi lozim. Aynan shu ilmiy qarashlar ushbu tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining to‘lov qobiliyati holatini baholashda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida banklararo to‘lovlar hajmi, muomaladagi plastik kartalar soni, to‘lov terminallari, bankomat va infokiosklar soni hamda to‘lov infratuzilmasi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, olingan ma’lumotlar asosida tijorat banklari to‘lov qobiliyatiga raqamli infratuzilmaning ta’siri baholanib, mavjud tendensiyalar ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatini baholashda ularning to‘lov qobiliyati holatini tahlil qilish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki bankning to‘lov qobiliyati nafaqat uning joriy majburiyatlarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarish imkoniyatini, balki umumiy moliyaviy barqarorligini, likvidlik darajasini, aktivlar sifatini hamda risklarni boshqarish samaradorligini ham ifodalaydi. Ayniqsa, bank xizmatlarining raqamlashtirilishi, elektron to‘lovlar hajmining ortishi, masofaviy xizmatlar ko‘lamining kengayishi va real vaqt rejimida hisob-kitob tizimlarining rivojlanishi tijorat banklari to‘lov qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillar tarkibini yanada murakkablashtirmoqda.

Mazkur bo‘limda tijorat banklari to‘lov qobiliyati holatini tavsiflovchi asosiy moliyaviy va institutsional ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Xususan, banklarning likvidlik darajasi, kapital yetarliligi, aktivlar sifati, daromadlilik ko‘rsatkichlari hamda raqamli to‘lovlar infratuzilmasining rivojlanish holati o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonining tijorat banklari faoliyatiga ko‘rsatayotgan ijobiy va salbiy ta’sirlari umumlashtiriladi hamda to‘lov qobiliyatining zamonaviy sharoitdagi holati yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantiriladi. Tahlil natijalari asosida tijorat banklari to‘lov qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar aniqlanadi.

1-jadval. 2025-yilda banklararo to‘lov tizimi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblar[1], (mlrd. so‘m)

Davr	Memorial order summasi	To‘lov topshiriqnomasi summasi	To‘lov talabnomasi summasi	Akkreditivga ariza summasi	Inkasso topshiriqnomasi summasi
2025-yil	8 031 865	3 332 434	1 438	3	9 060
Yanvar	534 274,9	197 245,4	173,3	—	555,9
Fevral	482 939,7	201 864,6	147,7	—	654,5
Mart	539 298,2	172 410,5	250,6	—	732,4
Aprel	651 161,3	236 325,4	107,8	—	636,9
May	626 012,4	237 043,2	62,4	—	631,9
Iyun	709 461,2	269 898,1	79,3	—	631,7
Iyul	819 152,3	290 148,1	102,6	—	832,4
Avgust	697 697,5	320 636,7	93,0	—	1 032,1

1 Markaziy bank ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. https://cbu.uz/upload/medialibrary/fde/hhryqf4kb8vgrwci7dn2d802q6gfg459/MB-Statistik-byulleteni-_-2025-yil.pdf

Sentabr	626 843,0	300 480,0	85,0	0,5	681,6
Oktabr	749 279,9	374 489,5	87,4	—	657,1
Noyabr	692 091,3	333 342,6	99,3	1,5	635,0
Dekabr	903 653,3	398 549,5	150,0	1,1	1 378,3

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblarning umumiy summasi 11 374 800 mlrd so'mni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkich tarkibida eng katta ulush memorial orderlar va to'lov topshiriqnomalari hissasiga to'g'ri keladi. Xususan, memorial orderlar bo'yicha yillik summa 8 031 865 mlrd so'm, to'lov topshiriqnomalari bo'yicha esa 3 332 434 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu holat banklararo hisob-kitoblarda aynan shu ikki to'lov shakli ustuvor ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi.

Oylar kesimida tahlil qilinganda, umumiy hisob-kitoblar summasi yil davomida notekis, biroq o'sish tendensiyasi asosida shakllangan. Jumladan, yanvar oyida jami summa 732 249,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, dekabr oyiga kelib ushbu ko'rsatkich 1 303 732,3 mlrd so'mga yetgan. Bu esa yil oxiriga borib banklararo to'lovlar hajmi sezilarli ravishda ortganini anglatadi. Ayniqsa, iyul, oktabr va dekabr oylarida yuqori hajmdagi hisob-kitoblar kuzatilgan bo'lib, bu davrlarda xo'jalik yurituvchi subyektlar va banklar o'rtasidagi moliyaviy operatsiyalar faollashgani bilan izohlanadi.

Shuningdek, memorial orderlar summasi barcha oylarda eng yuqori ulushni egallagan. Masalan, dekabr oyida ushbu ko'rsatkich 903 653,3 mlrd so'mga, iyul oyida esa 819 152,3 mlrd so'mga teng bo'lgan. To'lov topshiriqnomalari summasi ham yil davomida izchil oshib borgan va dekabr oyida 398 549,5 mlrd so'm bilan eng yuqori darajaga yetgan. Mazkur holat banklararo hisob-kitoblarda an'anaviy va keng qo'llaniladigan to'lov instrumentlari hamon asosiy o'rinni egallayotganini ko'rsatadi.

To'lov talabnomalari, akkreditivga arizalar va inkasso topshiriqnomalari summasi esa nisbatan past ulushni tashkil etgan. Xususan, akkreditivga arizalar bo'yicha operatsiyalar faqat ayrim oylardagina qayd etilgan va ularning umumiy summasi juda kichik bo'lgan. Bu esa mazkur instrumentning banklararo to'lov tizimida cheklangan darajada qo'llanilayotganini bildiradi. Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha summalar ham memorial orderlar va to'lov topshiriqnomalariga nisbatan ancha past bo'lsa-da, ayrim oylarda, ayniqsa dekabrda, ma'lum darajada o'sish kuzatilgan.

Umuman olganda, 2025-yilda banklararo to'lov tizimi orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblar tarkibida memorial orderlar va to'lov topshiriqnomalari mutlaq ustunlik qilgan, yil davomida jami summada o'sish tendensiyasi kuzatilgan hamda yil yakunida to'lovlar hajmi eng yuqori nuqtaga chiqqan. Bu holat banklararo hisob-kitoblar tizimining faol ishlaganini, iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi to'lov aylanishi kengayganini va moliyaviy operatsiyalar hajmi yil davomida oshib borganini ifodalaydi.

2-jadval. Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari, o'rnatilgan to'lov terminallari, bankomat va infokiosklar soni hamda to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi

Sana	Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni	O'rnatilgan to'lov terminallari soni	O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni	To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi (yil boshidan, mlrd. so'm)
01.01.2024	46 205 950	429 334	26 655	254 179,1
01.01.2025	61 996 419	426 225	29 909	326 735,0
01.01.2026	68 267 436	430 762	40 090	460 259,6

Jadval ma'lumotlari 2024–2026-yillar boshida O'zbekistonda naqdsiz hisob-kitoblar infratuzilmasi izchil rivojlanganini ko'rsatadi. Xususan, muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 46,2 mln donadan 68,3 mln donaga yetib, sezilarli o'sishni namoyon etgan. Bu holat aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida bank xizmatlaridan foydalanish ko'lami kengayganini hamda raqamli to'lov vositalarining ommalashganini anglatadi.

Shu bilan birga, o'rnatilgan to'lov terminallari soni deyarli barqaror saqlangan bo'lsa-da, bankomat va infokiosklar soni 26 655 tadan 40 090 taga oshgan. Mazkur tendensiya bank infratuzilmasining hududiy qamrovi va mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari kengayganidan dalolat beradi. Ayniqsa, bankomat va infokiosklar sonining tez o'sishi bank xizmatlarining qulayligi va uzluksizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Eng muhim jihat shundaki, to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi 254 179,1 mlrd so'mdan 460 259,6 mlrd so'mga ko'paygan. Bu esa mavjud to'lov infratuzilmasidan foydalanish intensivligi ortganini, iqtisodiyotda naqdsiz to'lovlar ulushi kengayayotganini va raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimining operatsion faolligi kuchayganini ko'rsatadi.

Mazkur holatlar tadqiqot mavzusi nuqtai nazaridan shuni anglatadiki, tijorat banklarining to'lov qobiliyati endilikda faqat moliyaviy resurslar bilan emas, balki rivojlangan raqamli infratuzilma, keng to'lov tarmog'i va

to‘lovlar oqimini samarali boshqarish salohiyati bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Demak, raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar to‘lov qobiliyatining mustahkamligi to‘lov vositalari va infratuzilmaning rivojlanish darajasi bilan bevosita belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari to‘lov qobiliyatini baholashda an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi, to‘lov tizimlarining funksional samaradorligi hamda naqdsiz hisob-kitoblar ko‘lamining kengayishini ham inobatga olish zarurligini ko‘rsatdi. Tahlillar asosida banklararo to‘lovlar hajmi, muomaladagi plastik kartalar soni, bankomat va infokiosklar tarmog‘i, shuningdek, to‘lov terminallari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar summasida barqaror o‘sish tendensiyasi mavjudligi aniqlandi. Mazkur holat mamlakatda raqamli to‘lov muhiti izchil shakllanayotganini va tijorat banklarining operatsion faoliyati tobora ko‘proq raqamli kanallarga tayanayotganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot shuni ham ko‘rsatdiki, raqamlashtirish jarayoni tijorat banklari uchun ikki tomonlama iqtisodiy natija keltirib chiqarmoqda: bir tomondan, hisob-kitoblar tezligi, xizmatlar qulayligi va to‘lovlar aylanishi oshmoqda, ikkinchi tomondan esa banklarning to‘lov qobiliyatini ta’minlash mexanizmlariga nisbatan yanada yuqori talablar yuzaga kelmoqda. Xususan, real vaqt rejimidagi to‘lovlar oqimini boshqarish, uzluksiz ishlovchi texnologik infratuzilmani shakllantirish, operatsion uzilishlarning oldini olish va to‘lov tizimlari barqarorligini saqlash banklar moliyaviy mustahkamligining ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Shundan kelib chiqib, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari to‘lov qobiliyatini mustahkamlashning ustuvor yo‘nalishi sifatida moliyaviy barqarorlik, likvidlik boshqaruvi va raqamli infratuzilma samaradorligini o‘zaro uyg‘un holda rivojlantirish lozim. Mazkur yondashuv bank tizimining ishonchliligini oshirish, mijozlar manfaatlarini himoya qilish va milliy to‘lov tizimining barqaror faoliyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. World Bank. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, DC: World Bank, 2022.
2. Bouis, R., Gelos, G., Miettinen, P., Nakamura, F., Nier, E., Soderberg, G. Central Bank Digital Currencies and Financial Stability: Balance Sheet Analysis and Policy Choices. – IMF Working Paper WP/24/226. – Washington, DC: International Monetary Fund, 2024.
3. Bank for International Settlements. BIS Annual Economic Report 2024. – Basel: BIS, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Annual Report 2024. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
5. Basel Committee on Banking Supervision. Digitalisation of Finance. – Basel: Bank for International Settlements, 2024.
6. Freixas, X., Rochet, J.-C. Microeconomics of Banking. – 2nd ed. – Cambridge, MA: MIT Press, 2008.
7. Allen, F., Gale, D. Financial Intermediaries and Markets // Econometrica. – 2004.
8. Maxmudova, M. O‘zbekiston banklarining raqamli transformatsiyasi va uning moliyaviy barqarorlikka ta’siri // International Finance & Accounting. – 2025.
9. Baxromov, N.M. Tijorat banklarining bank nazoratiga oid likvidlilik ko‘rsatkichlarining iqtisodiy ahamiyati va zaruriyati // Raqamli iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali. – 2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-6079-son Farmon. – 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Statistik byulleten, 2025-yil. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026.

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. № 4

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz